



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	

AUDITORIYADA VA AUDITORIYADAN TASHQARI JARAYONDA TALABALAR IJTIMOIYLASHUVINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Alimova Gulrux Farhod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada auditoriyada va auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonida talabalarning shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari madaniy-gumanistik yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ madaniyati, refleksiv tafakkuri va ma'naviy mas'uliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari faoliyatning o'zaro integratsiyasi asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishning samarali usullari asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining jamoadagi hamkorlik faoliyati, tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, madaniy-gumanistik yondashuv, ijtimoiy faollik, kommunikativ madaniyat, refleksiv tafakkur, kasbiy kompetentlik, ma'naviy mas'uliyat, auditoriyadan tashqari faoliyat.

Abstract: This article analyzes the mechanisms for developing students' personal and professional socialization in classroom and extracurricular educational processes based on a cultural-humanistic approach. It also highlights the pedagogical opportunities for developing students' social activity, communicative culture, reflective thinking, and spiritual responsibility. The article substantiates effective methods of forming students' social competence through the integration of classroom instruction and extracurricular activities. Furthermore, the socio-pedagogical significance of developing teamwork, initiative, and independent decision-making skills of future specialists in the modern higher education system is revealed.

Key words: socialization, cultural-humanistic approach, social activity, communicative culture, reflective thinking, professional competence, spiritual responsibility, extracurricular activity.

Аннотация: В данной статье на основе культурно-гуманистического подхода проанализированы механизмы развития личностной и профессиональной социализации студентов в аудиторном и внеаудиторном образовательном процессе. Также раскрыты педагогические возможности развития социальной активности студентов, их коммуникативной культуры, рефлексивного мышления и духовной ответственности. В статье обоснованы эффективные способы формирования социальной компетентности студентов на основе интеграции аудиторных занятий и внеаудиторной деятельности. Кроме того, раскрыто социально-педагогическое значение развития у будущих специалистов навыков командного взаимодействия, инициативности и самостоятельного принятия решений в современной системе высшего образования.

Ключевые слова: социализация, культурно-гуманистический подход, социальная активность, коммуникативная культура, рефлексивное мышление, профессиональная компетентность, духовная ответственность, внеаудиторная деятельность.

KIRISH

Madaniy-gumanistik yondashuv zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat chuqur kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarini tayyorlash, balki ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk, kommunikativ madaniyati shakllangan, mustaqil fikrlaydigan hamda jamiyat taraqqiyotiga mas'uliyat bilan yondashadigan shaxsni tarbiyalash vazifasi ham turibdi. Shu nuqtai nazardan, talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish masalasi ta'lim-tarbiya jarayonining alohida yo'nalishi sifatida emas, balki butun pedagogik faoliyat mazmunini belgilovchi ustuvor omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.



Talabalarining ijtimoiylashuvi ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ongli ravishda kirishishi, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi hamda kasbiy faoliyatga ijtimoiy mas'uliyat asosida tayyorlanishi bilan tavsiflanadi. Madaniy-gumanistik yondashuv talabani shaxs sifatidagi ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, muloqot madaniyatini rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvda talaba tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki o'zini anglay oladigan, faoliyatini tahlil va baholay oladigan, jamoa bilan samarali hamkorlik qiladigan hamda ijtimoiy tajribani faol o'zlashtiradigan subyekt sifatida qaraladi.

Auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari faoliyatning o'zaro integratsiyasi talabalarining ijtimoiylashuvini samarali rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Nazariy bilimlar, amaliy topshiriqlar, seminarlar va munozaralar talabani intellektual hamda refleksiv tafakkurini rivojlantirsa, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlar tashkilotlari faoliyati va jamoaviy tashabbuslar uning real ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlaydi. Natijada talaba o'z kasbiy bilimlarini amaliy ijtimoiy tajriba bilan uyg'unlashtiradi hamda jamoada ishlash, yetakchilik, mas'uliyat, tashabbuskorlik, bag'rikenglik va hamkorlik kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni faoliyat jarayonida egallaydi.

Shu bois madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon talabalarda ijtimoiy faollik, kommunikativ kompetentlik, ma'naviy mas'uliyat, mustaqillik, fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy barqarorligini, qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashini va insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarining ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy kamoloti va kasbiy shakllanishi masalalari pedagogika, psixologiya hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarda keng tadqiq etilgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarda shaxsning ta'lim jarayonidagi rivojlanishi, uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati, ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda kasbiy faoliyatga tayyorlanishi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar sifatida talqin etiladi. Pedagogik adabiyotlarda ta'limning insonparvarlik mohiyati, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, tarbiya jarayonida qadriyatlar tizimining o'rni hamda talabani faol subyekt sifatida rivojlanishi alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Sh.M. Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga oid konseptual qarashlarida yosh avlodni bilimli, tashabbuskor, vatanparvar va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

I.A. Karimovning ma'naviyat va tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida esa yoshlar ongida yuksak ma'naviyatni shakllantirish, milliy qadriyatlarni asrash va axloqiy barqarorlikni ta'minlash jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida asoslab berilgan. Ushbu ilmiy-nazariy qarashlar talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy omillarning ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Pedagogika nazariyasida J. Hasanboyev, X. To'raqulov, M. Haydarov, M. Ochilov, O'. Tolipov va M. Usmonboyevalarning ilmiy ishlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar hamda tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari keng yoritilgan. Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari talabalarining auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatini integratsiyalash, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi faoliyat va refleksiv yondashuvlar asosida ijtimoiylashuv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Psixologik yondashuvlarda E. G'oziyev, A. Maslou va K. Rodjersning shaxs rivojlanishi, motivatsiya, o'zini anglash, erkin tanlov hamda ichki ehtiyojlar haqidagi ilmiy g'oyalari muhim nazariy asos sifatida e'tirof etiladi.

A. Maslou nazariyasida shaxsning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoji ijtimoiy faollik va o'zini namoyon etish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi.

K. Rodjersning insonparvar psixologiyasida esa ta'lim jarayonida shaxs erkinligi, o'ziga bo'lgan ishonch, qo'llab-quvvatlovchi muhit va o'zini namoyon qilish imkoniyatlari shaxs rivojlanishining muhim omillari sifatida baholanadi. Mazkur yondashuvlar madaniy-gumanistik ta'lim muhitida talabani shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

O. Musurmonova, A. Xoliqov va boshqa mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlar, pedagogik mahorat, muloqot madaniyati hamda tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarining ijtimoiylashuvini rivojlantirish, auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat imkoniyatlaridan samarali foydalanish,

kommunikativ kompetentlik va ijtimoiy tashabbuskorlikni shakllantirish masalalari dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish faqat ta'lim mazmuni bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu jarayon pedagogik muhit, ijtimoiy tajriba, qadriyatlarga asoslangan tarbiya, faol hamkorlik, muloqot madaniyati va shaxsning o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi. Shu bois talabalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishda madaniy-gumanistik yondashuvning nazariy va amaliy imkoniyatlarini chuqur o'rganish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish jarayonini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etishga qaratildi. Mazkur yondashuvda talaba pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi, mustaqil fikrlovchi subyekt va ijtimoiy tajribani o'zlashtiruvchi hamda yaratishga qodir shaxs sifatida talqin etiladi. Shu bois tadqiqotda talabalarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ madaniyati, ma'naviy-axloqiy qarashlari, refleksiv tafakkuri va kasbiy tayyorgarligi o'zaro bog'liq pedagogik hodisalar sifatida o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, suhbat, savol-javob, faoliyat mahsullarini o'rganish hamda pedagogik tajribalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil yordamida madaniy-gumanistik yondashuv, ijtimoiylashuv, ijtimoiy faollik, kommunikativ kompetentlik va ma'naviy tarbiya tushunchalarining ilmiy mazmun-mohiyati aniqlashtirildi. Pedagogik kuzatish orqali auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari faoliyat jarayonlarida talabalarning jamoaviy hamkorlik, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatga oid xatti-harakatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda talabalarning ijtimoiylashuv darajasini aniqlash uchun bir qator mezonlar asos qilib olindi. Birinchi mezon g'oyaviy-ma'naviy tasavvurlar darajasi bo'lib, bunda talabalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy hodisalarni anglash darajasi hamda ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi e'tiborga olindi. Ikkinchi mezon amaliy faoliyatga tayyorlik darajasi bilan bog'liq bo'lib, talabalarning jamoaviy topshiriqlar, ijtimoiy loyihalar, seminarlar, munozaralar va volontyorlik faoliyatidagi ishtiroki tahlil qilindi. Uchinchi mezon ijtimoiy faollik motivatsiyasi asosida belgilandi va talabalarning hamkorlik qilish, boshqalarga yordam berish, jamoa manfaatlarini qadrlash hamda ijtimoiy mas'uliyatni his etish darajasi o'rganildi. To'rtinchi mezon esa mustaqillik va tashabbuskorlik darajasi bo'lib, talabalarning o'z faoliyatini rejalashtirishi, qaror qabul qilishi, o'z-o'zini baholashi va faoliyat natijalarini tahlil qila olish qobiliyatlari orqali baholandi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat integratsiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Auditoriya mashg'ulotlarida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, debatlar, seminarlar, dialogik ta'lim hamda loyiha asosida ishlash texnologiyalari talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ijtimoiy tajriba bilan bog'lash vositasi sifatida qo'llanildi. Auditoriyadan tashqari faoliyatda esa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy to'garaklar, sport musobaqalari, yoshlar tashkilotlari faoliyati, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik ishlari talabalarni real ijtimoiy muhitga jalb etuvchi muhim pedagogik omillar sifatida qaraldi.

Mazkur metodologik yondashuv talabalarning ijtimoiylashuvini faqat bilimlarni o'zlashtirish jarayoni sifatida emas, balki shaxsiy kamolot, ma'naviy tarbiya, kommunikativ rivojlanish va kasbiy tayyorgarlikni o'zida mujassamlashtirgan kompleks pedagogik tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Natijada madaniy-gumanistik yondashuv talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda nafaqat nazariy konsepsiya, balki samarali amaliy-pedagogik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish jarayoni pedagogik faoliyat mazmunini zamonaviy ijtimoiy-pedagogik talabalar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Chunki bugungi oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassisning nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki uning ijtimoiy faolligi, kommunikativ madaniyati, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy dunyo-qarashining shakllanganligi ham muhim pedagogik natija sifatida baholanmoqda. Shu jihatdan auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash hamda ularni madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, talabaning ijtimoiylashuvi faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarga faol kirishishi, ma'naviy qadriyatlarni anglab yetishi, mustaqil fikrlashi va kasbiy faoliyatga ongli ravishda tayyorlanishi bilan belgilanadi. Shu sababli auditoriya mashg'ulotlari hamda auditoriyadan tashqari pedagogik faoliyat o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etilgandagina talabaning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini samarali rivojlantirish imkoniyati yuzuga keladi. Ayniqsa, seminarlar, munozaralar,



treninglar, loyiha asosida ishlash, debatlar va jamoaviy topshiriqlar talabalarning kommunikativ hamkorligini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Auditoriya mashg'ulotlarida talabalarni erkin fikrlashga yo'naltirish, ularning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlash va refleksiv tafakkurini rivojlantirish madaniy-gumanistik yondashuvning asosiy pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Refleksiv tafakkur talabani o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashi, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirish olishi hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va dialogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim pedagogik imkoniyat yaratadi.

Auditoriyadan tashqari faoliyat esa talabalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishda yanada keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, volontyorlik faoliyati, yoshlar tashkilotlari, ijodiy to'garaklar, teatr studiyalari, sport musobaqalari va ijtimoiy loyihalar talabalarda jamoada ishlash, liderlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bunday faoliyatlar orqali talabalar real ijtimoiy muhitga moslashadi, ijtimoiy tajriba orttiradi hamda o'z imkoniyatlarini amaliy faoliyatda namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonda talabalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, ularda ma'naviy mas'uliyat, bag'rikenglik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida bo'lajak mutaxassisning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki uning ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligi ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirish pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida kommunikativ kompetentlik alohida o'rin tutadi. Kommunikativ madaniyat shaxsning jamoadagi munosabatlarini samarali tashkil etish, ijtimoiy muhitga moslashish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan ta'lim jarayonida dialogik muloqot, hamkorlikda ishlash va jamoaviy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalar ijtimoiylashuvining samaradorligini oshiradi. Bunday faoliyat talabalarning ijtimoiy munosabatlarga faol kirishishi, o'z fikrini erkin ifoda etishi hamda jamoada munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Demak, auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etilganda talabani ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi. Mazkur yondashuv bo'lajak mutaxassislarda ijtimoiy faollik, kommunikativ madaniyat, refleksiv tafakkur, ma'naviy mas'uliyat va kasbiy kompetentlikni shakllantirish orqali ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasini pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarash zaruratini yuzaga keltiradi.

Talabalarning ijtimoiy faolligi, avvalo, ularning o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olishi, ushbu maqsadga erishishda qat'iyat, tashabbuskorlik va mas'uliyat bilan faoliyat olib borishi orqali namoyon bo'ladi. Bunday faoliyat jarayonida talaba nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga ongli ravishda kirishib, o'zining fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy dunyoqarashini ham shakllantiradi. Shu sababli madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonda talabani ijtimoiy faolligini rivojlantirish uning ma'naviy-axloqiy kamoloti, kasbiy kompetentligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Mazkur yondashuv nuqtayi nazaridan ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat manfaatlariga daxldorlik hissi, ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish orqali ularda atrof-muhitga ehtiyotkor munosabat, tinchlik va barqarorlikni qadrlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarda turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish hamda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni rivojlantirish madaniy-gumanistik yondashuvning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator mezonlar orqali tavsiflanadi.

Birinchi mezon talabalarda shakllangan g'oyaviy-ma'naviy tasavvurlar darajasi bilan bog'liq bo'lib, bunda ularning ijtimoiy hodisalarga ongli munosabati, ma'naviy-axloqiy qarashlarining shakllanganligi hamda ijtimoiy qadriyatlarni anglash darajasi muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Madaniy-gumanistik yondashuvda talabani ichki dunyosi, qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashi va ma'naviy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi mezon talabaning amaliy faoliyatga tayyorligi va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq ko'nikmalarni egallaganlik darajasini ifodalaydi. Bunda o'quv-bilish faoliyati, tashkiliy ishlar, jamoaviy hamkorlik, mehnat faoliyati va kundalik ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish muhim pedagogik ko'rsatkich sifatida baholanadi. Shu jihatdan auditoriya va auditoriyadan tashqari tashkil etilgan interfaol mashg'ulotlar, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati hamda pedagogik amaliyotlar talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Uchinchi mezon ijtimoiy faollik motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi bilan bog'liqdir. Talabalarda boshqalarga yordam berishga intilish, jamoa manfaatlarini qadrlash, hamkorlikka moyillik va ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanganligi ularning ma'naviy tarbiyalanganlik darajasini ifodalaydi [34]. Shu sababli madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonda talabalarni o'zaro hamkorlikka, mehr-oqibat va bag'rikenglikka yo'naltirish muhim pedagogik omil sifatida qaraladi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni bir-birini qo'llab-quvvatlashga, jamoa ishlarida faol qatnashishga va ijtimoiy tashabbus ko'rsatishga undash ularning shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashuvini jadallashtiradi.

To'rtinchi mezon talabalarda mustaqillik va tashabbuskorlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Madaniy-gumanistik yondashuvda talaba pedagogik ta'sir obyekti emas, balki mustaqil fikrlovchi va faol harakat qiluvchi subyekt sifatida qaraladi. Shu bois talabaning o'z faoliyatini rejalashtira olishi, mustaqil qaror qabul qilishi, o'z-o'zini nazorat qilishi va faoliyat natijalarini tahlil qila olishi uning ijtimoiy faolligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi [38]. Mazkur sifatlar, ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, ularning pedagogik faoliyatda kreativ va refleksiv yondashuvni namoyon etishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayoni ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy kompetensiyalari, kommunikativ madaniyati, mustaqilligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon auditoriya va auditoriyadan tashqari pedagogik faoliyatning integratsiyasi asosida amalga oshirilgandagina talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini samarali ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish oliy ta'lim tizimida barkamol, ijtimoiy faol va ma'naviy mas'uliyatli mutaxassislarini tayyorlashning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabaning ijtimoiylashuvi faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki uning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi, jamoa bilan samarali hamkorlik qilishi, o'z fikrini erkin ifoda eta olishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda kasbiy faoliyatga ongli munosabat bildira olishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari faoliyatning o'zaro integratsiyasi talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Auditoriyada qo'llaniladigan interfaol metodlar, muammoli ta'lim, seminarlar, munozaralar, debatlar va refleksiv topshiriqlar talabalarning tafakkurini, kommunikativ madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Auditoriyadan tashqari faoliyat esa talabalarning ijtimoiy tajriba orttirishi, jamoada o'z o'rnini topishi, liderlik, tashabbuskorlik, bag'rikenglik va mas'uliyat kabi muhim sifatlarini amaliy faoliyat jarayonida shakllantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirishda g'oyaviy-ma'naviy tasavvurlar, amaliy faoliyatga tayyorlik, ijtimoiy faollik motivatsiyasi, mustaqillik va tashabbuskorlik asosiy mezonlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mezonlarning kompleks ravishda shakllanishi talabaning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki uning kelgusidagi kasbiy faoliyatga moslashuvi, ijtimoiy barqarorligi hamda fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Madaniy-gumanistik yondashuv talabaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning shaxsiy qadr-qimmatini e'tirof etish, insonparvarlik, mehr-oqibat, hamkorlik, ijtimoiy mas'uliyat hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida mazkur yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish talabalar ijtimoiylashuvining samaradorligini oshiradi hamda ularni zamonaviy jamiyat talabalariga mos, kasbiy jihatdan raqobatbardosh va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon talabalarda ijtimoiy faollik, kommunikativ kompetentlik, refleksiv tafakkur, ma'naviy mas'uliyat, mustaqillik va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish masalasini zamonaviy oliy ta'limning strategik pedagogik vazifalaridan biri sifatida qarash zarurligini tasdiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 672 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 128 b.
5. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
7. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 336 b.
8. Raxmanova M. Madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent, 2025.
9. Raxmanova M. Talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari. – Toshkent, 2025.
10. Raxmanova M. Auditoriyada va auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2025.
11. Коменский Я.А. Великая дидактика. – Ташкент: Ўқитувчи, 1975. – 287 с.
12. Руссо Ж.Ж. Эмиль или о воспитании. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2008. – 356 с.
13. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Питер, 2019. – 400 с.
14. Роджерс К. Взгляд на становление личности. – Москва: Прогресс, 1994. – 480 с.
15. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.